



# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan  
chiqa boshlagan

2020-yil. 2-son

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

# Я

## ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

# L

## LANGUAGE AND LITERATURE

### TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

**Shavkat MIRZIYOYEV:**

*Abdulla Qodiriy ijod maktabida o'qiyotgan bu bolalar yangi O'zbekistonning kelajagi bunyodkorlaridir. Barcha umumta'lim maktablari ushbu o'quv dargohidan ma'naviyatni, ma'rifatni o'rganishi lozim. Chunki bu yerda tahsil olayotgan bolalar nafaqat ma'naviyatli, balki o'z vatanini yurakdan sevuvchi iste'dod egalari. Biz ijod maktablarida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilganmiz.*



Ushbu sonda



Metodik tavsiya  
O'quv lug'ati qanday  
lug'at?

6  
bet



Dars – muqaddas  
Iskandar – adolatli shoh

14  
bet



Tahlil  
Ma'naviy kamolot ramzi

30  
bet



Литературный  
календарь  
«Белый свет»  
творчества А.П.Чехова

70  
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 2-son.

**Bosh muharrir**

Bahodir JOVLIYEV

**Tahrir hay'ati:**

Sherzod SHERMATOV  
Dilshod KENJAYEV  
Maqsudxon YO'LDOSHEV  
Nizomiddin MAHMUDOVI  
Nargiza RAHMONQULOVA  
Yorqinjon ODILOV  
Mamatqul JO'RAYEV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinbosari)  
Nilufar Namozova

**Jamoatchilik kengashi:**

Muhammadjon ALIYEV  
Ergesh ABDUVALITOV  
Manzura DADAXO'JAYEVA  
Ehson TURDIQULOV

**Sahifalovchilar:**

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

**Nashr uchun mas'ul:**

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Yuliya MUSURMANOVA

**Tahririyat manzili:**

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10,

(71) 233-03-45,

(71) 233-03-67.

e-mail: til\_adabiyot@mail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jumaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jumalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 25.02.2020-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>8</sub>. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Times" gamiturasini. 10, 11 kegl. "SANO-STANDART" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Olmazor tum., Shiroq ko'chasi. Buyurtma 33. Adadi 4350 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

**TIL VA ADABIYOT**

**TA'LIMI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**

**LANGUAGE AND LITERATURE**

TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**MUNDARIJA**

<b>Samixon ASHIRBOYEV.</b> O'zbek tili ta'limi metodikasining ayrim dolzarb masalalari .....	3
<b>DOLZARB MAVZU</b>	
<b>Bashorat BARRIDDINOVA.</b> O'quv lug'ati qanday lug'at? .....	6
<b>Gulbahor RAHIMOVA, Muhayyo VAFOYEVA.</b> Alisher Navoiy g'azalida frazemalar .....	8
<b>Shahnoza RAHIMOVA.</b> Ingliz idiomalari tarjimasida milliy va tarixiy o'ziga xoslik masalasi .....	10
<b>METODIK TAVSIYA</b>	
<b>DARS – MUQADDAS</b>	
<b>Nozima QORABOYEVA.</b> Undalmalar ustubiyati .....	12
<b>Nasiba BOZOROVA.</b> Iskandar – adolatli shoh .....	14
<b>Adiba BEKCHANOVA.</b> Qaroqlarda qotgan ikki tomchi yosh .....	17
<b>Shodiyor PO'LATOV, Muhayyo HAMIDOVA.</b> Tug'ilgansan ozod, mudom ozod bo'lib qol! .....	19
<b>ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR</b>	
<b>Nurjamol NORMATOVA.</b> Og'zaki nutqni rivojlantirishda "Hamkorlikda ishlash" texnologiyasi .....	21
<b>TAHLIL</b>	
<b>Botir TOJIBOYEV.</b> "O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar)" materiallarining lingvistik tahlili .....	23
<b>Abdumurod NOMOZOV.</b> Matndagi iboralarni aniqlash va ularning xususiyatlarini yozma izohlashga o'quvchilarni o'rgatish .....	25
<b>Zuhra NOSIROVA.</b> XX asr yapon nasri tendensiyalari .....	27
<b>Gavharoy ISMOILOVA.</b> Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizil" romanida ramz va psixologik tasvir .....	28
<b>Bahodir JOVLIYEV.</b> Ma'naviy kamolot ramzi .....	30
<b>TADQIQOTLAR</b>	
<b>Behzod TURNIYAZOV.</b> Kauzal ma'noning klassik davrda o'rganilishi .....	32
<b>Umida RASHIDOVA.</b> O'zbek tilida somatik frazeologik sinonimlarning uslubiy tarmoqlanishi xususida .....	35
<b>Dilnoza MAMIROVA.</b> Reklama matnlarida segment qurilmalarning o'ziga xos xususiyatlari .....	37
<b>KICHIK TADQIQOT</b>	
<b>Zarif QUVONOV.</b> Tabarruk izlar izidan .....	39
<b>Alijon SAFAROV.</b> Qizil askarlar gazetasi nega o'zbekchadan saboq bergan? .....	41
<b>Jamoliddin YOQUBOV.</b> "Masnaviy" ning ma'naviy maxzani .....	43
<b>Nilufar RAXMATOVA.</b> Alisher Navoiyning "Xamsa" asarida yashil rang talqini .....	44
<b>Sayyora XALDARCHAYEVA.</b> Ingliz va o'zbek tillarida bog'lovchi fe'llarning kategorial semantikasi .....	45
<b>TAVSIYA</b>	
<b>Abdunazar JO'RAYEV.</b> Bo'lajak gid-tarjimonlarning lingvo-professional kompetensiyasini shakllantirish .....	48
<b>МЕТОДИКА. ОПЫТ</b>	
<b>Наргиза НАСЫРОВА.</b> Интегрированный урок русского языка и музыки .....	49
<b>ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ</b>	
<b>Насиба НИЯЗОВА.</b> Использование страноведческих текстов при обучении русскому языку студентов-юристов .....	51
<b>Дилдора ТОЛПОВА.</b> Методика работы с текстами при обучении русскому языку студентов юридических специальностей .....	53
<b>ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b>	
<b>Фахриддин АВДУРАХМАНОВ.</b> Семантический и синтаксический анализ падежных значений в русском и узбекском языках в аспекте дистрибутивно-трансформационной грамматики .....	55
<b>Камила ХАСАНОВА.</b> Этнографизмы, обозначающие узбекские реалии в текстах английского языка .....	56
<b>ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ</b>	
<b>Майя ЭМ.</b> Типологические основы фразеологических единиц в кратком немецко-иноязычном фразеологическом словаре (КНИФС) .....	59
<b>ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>	
<b>Номира УСМАНОВА.</b> Реальность и миф в творчестве Чингиза Айтматова и Тимура Пулатова .....	60
<b>Агата ОСИПОВА.</b> Функционирование типов «условного» и «реального» авторского иачала в современном русском рассказе .....	61
<b>НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ</b>	
<b>Ирина ПАНФЕРОВА.</b> Реализация современных научно-методических направлений подготовки педагогических кадров .....	63
<b>Татьяна ПОЛОВИНКИНА.</b> Изучение романа Дины Рубиной «На солнечной стороне улицы» .....	66
<b>ЛИТЕРАТУРНЫЙ КАЛЕНДАРЬ</b>	
<b>Наталья ПЕТРУХИНА.</b> «Белый свет» творчества А.П.Чехова .....	70
<b>ПАМЯТИ ПОЭТА</b>	
<b>Гульнора МАНСУРОВА, Ирода САЙДАЛНЕВА.</b> Хамид Алимджан и Зульфия .....	72
<b>ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ</b>	
<b>Наргиза НЕМАТОВА.</b> Социокультурный компонент – основа формирования социокультурной компетенции .....	74
<b>Малика ПАРПИЕВА.</b> О проблемах переводов медицинской терминологии .....	76
<b>ВНЕКЛАССНОЕ МЕРОПРИЯТИЕ</b>	
<b>Нилуфар МУЛЛАХУНОВА.</b> Создание условий для билингвизма как феномена современности .....	78



**Samixon ASHIRBOYEV,**  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori

## O'ZBEK TILI TA'LIMI METODIKASINING AYRIM DOLZARB MASALALARI

*Ta'lim tizimida, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tilini o'qitish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi, lekin ular qanchalik uzoq tarixni bosib o'tmasin, ta'lim metodikalari ilmi har bir davrning talablari va istiqboli uchun xizmat qiladi. Bu jarayon barcha o'quv fanlarida, shu bilan birga o'zbek tilini o'qitishda ham namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda axborot ochiqligi sharoitida boshqa fanlar bilan bir qatorda o'zbek tilini belgilangan standartlar darajasida o'qitish, yangilangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishda ham qator muammolar kelib chiqadi. Axborot tizimlarida berilayotgan axborotlar, fanda ilgari surilayotgan turli qarashlarni saralab olish pedagogdan, ilmiy xodimdan katta kuch va vaqt sarflashni talab etmoqda. Bunday sharoitda ishlash va o'qish yana murakkablashadi. Shuning uchun o'zbek tili metodikasi sohasidagi tadqiqotlar ham o'z mazmun rejasini o'zgartirishi va innovatsion faoliyat bilan chambarchas bog'liq holda olib borilishi muhim.*

Ta'kidlash joizki, hozirga qadar olib borilgan tadqiqotlar natijalari (sifatidan qat'i nazar) o'tmishga xizmat qilgan va hozirgi jarayonlarda ularning o'rni saqlanib turibdi. Bu ishlarning aksariyatida mavjud holat o'rganilgan, ya'ni ularda amalda bo'lgan ta'lim jarayoni tahlil qilingan va qator tavsiyalar berish bilan chegralanilgan. Shunga qaramasdan, o'zbek tilini o'qitish bo'yicha muayyan tajribalar to'plangan. Endilikda esa ilmiy tadqiqotlar innovatsiyaga asoslangan bo'lishi shart bo'lib qolmoqda. Ta'limda innovatsiya masalasining ko'tarilganiga yigirma yildan oshgan bo'lsa-da, bu sohada jiddiy tadqiqotlar ko'zga tashlanmayapti. Shundan kelib chiqqan holda biz quyida o'zbek tilini o'qitish sifatini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ular bilan bog'liqlikda tashkiliy ishlar olib borilishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni belgilashga harakat qildik:

1. Ta'lim bosqichlari bo'yicha o'zbek tili mazmuni, uni o'qitish va o'zlashtirishga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarining ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligini o'rganish. Hozirgi o'rnatilgan malaka talablari hech bir ilmiy tadqiqotning natijasi emas, balki bir guruh olimlarimizning qarashi hamda qardosh respublikalar standartlari tajribasi hisobga olingan umumlashmalardir. Kichik tahlil o'tkazamiz. "Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari"da boshlang'ich sinf o'quvchisi (sinf ko'rsatilmagan, ehtimol, dasturlarda farqlangandir) bir daqiqada 80–90 ta so'zni o'qiy olishi, 75–80 ta so'zdan iborat diktant yozishi, 5–9-sinflarda bir daqiqada 120–130 so'zni o'qishi, 12–13 ta gapdan iborat matn tuzishi qoidalashtirilgan. Lekin bu raqamlar qaysi bir ilmiy tadqiqotning natijasi ekanligi noma'lum. Boringki, uni qoida sifatida qabul qilaylik. Bu raqamlarning o'zbek tili bilimlarini egallashga qanday aloqasi bo'lishi mum-

kin? Aslida bu kabi raqamlar qotib qolgan bo'lishi kerak emas, balki bolaning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi, ya'ni bolaning yoshi hisobga olinib, unga qancha miqdordagi bilimlarni berish mumkinligi e'tiborga olingan standart talablar o'rnatilishi lozim. Hozirgi standart talablar "kattalarning talablari" bo'lib qolmoqda. Demak, *o'zbek tili va adabiyoti metodikasi bo'yicha mutaxassislarimiz oldida, axborotlar oqimi sharoitida, bolalarimizning kun sayin saviyasi oshib borishi hisobga olingan mobil standart talablari yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borish majburiyati paydo bo'ladi.*

2. Sinflar kesimida o'zbek tili mazmuni uzviylikni ta'minlash bo'yicha ham tadqiqotlarga talab mavjud. Rus maktablaridagi o'zbek tili mazmuni uzviylik, qay darajada sifatli bajarilganligidan qat'i nazar, maxsus o'rganilgan, lekin o'zbek maktablari bo'yicha bunday ishlar amalga oshirilganicha yo'q. Boshlang'ich sinflarda *ona tili mazmuni uzviylik jiddiy o'rganilishi* kerak. Bizga ma'lum bo'lgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, 3-sinf ona tili materiallari 4-sinfga qaraganda axborotning ko'pligi bilan murakkab. Demak, uzviylik buzilgan. O'zbek maktablaridagi bolalarning o'zbek tili bo'yicha bilim olishlarida anchagina qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotganligi ma'lum. Ayniqsa, boshlang'ich sinf va 5-sinf uzviylikda muammolar ko'p.

3. Darsliklarda nazariy materiallarning berilishi. Maktab o'quvchisi 5-sinfga o'tgach, unga avvalgi bilimlari deyarli kerak bo'lmay qolmoqda. Qolaversa, 5-sinfda qanday til bilimlarini berish kerakligi masalasi yangicha fikrlashni talab qiladi. Darslikda hatto oliy ta'lim talabalari ham tushunishda qiynaladigan ta'riflar bor. Jumladan, darslikda *"Ohang va fikr tugalligiga ega*

bo'lib, kesimlik shakllari orqali ifodalanadigan so'z va so'zlar qo'shilmasi gap deyiladi", degan ta'rif beriladi.<sup>1</sup> Bu ta'rifdagi "ohang va fikr tugalligi", "kesimlik shakllari", "so'zlar qo'shilmasi" tushunchalarini 5-sinf bolasi his qila olmaydi, balki bu ta'rif bolaning yoshiga moslashtirilishi yoki u 8-, 9-sinflarga ko'chirilishi lozim. Shunda ham "so'z qo'shilmasi" birikmasi ilmiy ahamiyat kasb etmaydi, oqibatda o'quvchilar uni quruq yod olishlariga to'g'ri keladi. Buni keltirishdan maqsad bu va boshqa sinflarda tilning nazariy qoidalari va ularni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan amaliy materiallarni muallif aniq tadqiqot natijasiga ko'ra tanlash amaliyotini joriy etish va ularning, keyinchalik, o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtira olayotganligi doimiy eksperiment qilinishi zarurligini ta'kidlashdir.

Demak, *metodik tadqiqotlarimiz sinflar kesimida til materiallarining bola yoshiga mos kelishini tajribadan o'tkazish asosida uni amaliyotga tatbiq qilishga qaratilishi lozim.*

4. Mamlakatimizda yuksak saviyali filolog olimlarimiz yetarli. Darslik yozish ishini, amaliyotda ko'ringanidek, faqat nazariyachi olimlarga topshirib qo'yishni ham o'ylab ko'rish vaqti yetdi. Darslik yaratish ishini ham nazariyachi olim, ham bevosita maktab ta'limida ilg'or bo'lgan, ilmiy fantaziyaga ega amaliyotchi o'qituvchi hamkorligiga topshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ishda, avvalo, 1-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan ona tili mazmuni va uning uzviyligini ta'minlashga qaratilgan konsepsiya, uning standartlari, dasturlari hamda ularning natijasi sifatida darslik hamda o'qituvchilar uchun didaktik materiallar qo'llanmasini yaratuvchi nisbatan kattagina ijodiy guruhning shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Bu guruh sinflar kesimidagi darsliklarning uzviyligini ta'minlash loyihasi (prospekti)ni ishlab chiqishi, so'ng darslik yozish ular orasida taqsimlanishini tashkil etishi kerak. Ana shundagina ta'lim sifatini ta'minlashga qadam qo'yiladi, uzviyligi ta'minlanadi.

5. Avval ta'kidlaganimizdek, darsliklarning yaratilishi to'raligicha kafedra va bo'limlarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasiga asoslanishi shart. Bunga tayanch ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan "O'zbek tili va adabiyoti darsliklarini yaratish laboratoriyasi" xazinasini xizmat qilishi lozim. Bunday laboratoriya Respublikamizda yo'q, lekin uni tashkil etish o'ta dolzarb. Bu laboratoriya o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha tarixda yaratilgan barcha nashrlar va innovatsiyaga asoslangan xorij maktab darsliklarini o'z xazinasiga yig'ishi va ularning materiallari tasdiqlangan (albat, tanlovdan o'tgan) mualliflarga foydalanish uchun taqdim etilishi kerak. Bu bilan darsliklardagi an'anaviylik, ijodiylik hamda novatorlik ta'minlangan bo'ladi. Shu munosabat bilan pedagogik ilmiy-tadqiqot ishi uchun "O'zbek tili o'quv adabiyotlari mazmuni: ilmiy-tanqidiy konsepsiya va rivojlanish tamoyillari" mavzusini tavsiya etgan bo'lar edik.

Darsliklar ekspertizasini tashkil etishdagi an'anaviy tizimga ham zudlik bilan chek qo'yilishi davr talabi bo'lib turibdi. Boshqacha aytganda, darsliklarni taqrizdan

o'tkazishning hozirgi tizimi o'zini oqlamaydi. U rasmiyatchilikka aylanib bo'ldi, to'g'rirog'i, soxta taqrizlar uyushtirilmoqda. Endilikda uni jiddiy isloh qilish vaqti yetdi, ya'ni maktab darsliklarini ekspertiza qilishning yangi tartibini joriy etish zarur. Buning uchun tayyorlangan darslik loyihalarini maktab o'qituvchilarining o'zi tomonidan sinovdan o'tkazish tizimini yaratish va uning natijasiga ko'ra chop qilish maqsadga muvofiq. Shunisi quvonchliki, *har bir viloyat va tumanlarda o'z faoliyatini innovatsiyaga asoslangan holda tashkil etadigan o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari bor.* Har bir darslik loyihasi Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlardagi novator o'qituvchilarga kamida bir yil davomida sinash va ularning tegishli fikr-mulohazalarini olish uchun rasman topshirilishi lozim. O'z ishiga sidqidildan yondashadigan bunday o'qituvchilar bu masalada hech qanday "bo'shliq"qa yo'l qo'ymaydilar.

Darsliklarning yaratilishi va chop qilinishi bilan bog'liq nostandart taklif. Endilikda darsliklarni tayyorlash va nashr qilish ishi bilan **nodavlat nashriyot tizimi** shug'ullanishi ko'p jihatdan ma'qul ish bo'lar edi. Buning o'ziga yarasha ko'p ijobiy tomonlari bor. Ma'lumki, darslik yaratilishiga hozirgi davrda vazirlik ham buyurtmachi, ham iste'molchi, ham uning himoyachisi hisoblanadi. Bu esa ayni o'rinda u tanqidchilarni yoqtirmaydi, degani hamdir, chunki mahsulot bosilib chiqqach, vazirlikning himoyasiga o'tadi. Bizningcha, endi vazirlik faqat buyurtmachi va iste'molchi bo'lib qolishi kerak. Buning uchun vazirlik darslik masalasi bilan shug'ullanishni o'z boshidan soqit qilishi lozim. Darsliklar, umuman, o'quv adabiyotlarini nashr qilish bilan shunday nodavlat tashkiloti shug'ullanishi kerakki, ular darslikka bo'lgan ehtiyojni o'rganish, tanlov tashkil qilish asosida mualliflarni o'zlari jalb qilishlari, barcha moliyaviy masalalarni ham o'zlari hal qilishlari, darslikning sinalishi va amaliyligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bora olishlari kerak. Bu bilan darslik zamonaviyligi, jahon standartlariga muvofiqligi, eng ilg'or fikr, metod va texnologiyalarda yoritilganligi bilan barcha talablarga javob bersin, vazirlik va uning quyi tashkilotlari darsliklarning sifatiga bemaol o'z talablarini qo'ya olsin, balki hozirgidek muayyan doira ichida ishlamasin. Dastlabki davrda, ehtimol, nodavlat va davlat tashkilotlari raqobati tashkil etilar, qanday bo'lmasin, o'quv adabiyotlari sifati ta'minlanishi va u erkin tanqid qilina olishi davr talabi bo'lib turibdi. To'g'ri, hozirgi "o'zbekchilik"ka qaramay, oz bo'lsa-da, tanqidiy maqolalar chiqmoqda.

Eng muhimi, bunday nodavlat nashriyoti o'zining intellektual qudratiga ega bo'lishi va jahon tajribalarini sintez qila oladigan mutaxassislardan tashkil topishi kerak. Masalaning ikkinchi tomoni O'zbekiston Respublikasida bu tashkilotga mos kadrlarni topib, joy-joyiga qo'yishdir.

Yana bir masala. Darsliklarda mualliflar familiyasi va ismining ko'rsatilishini ham o'ylab ko'rish kerak. To'g'ri, ularga *mualliflik hujjatlari* berilishi shart, bu hujjat ularning o'z ish joylaridagi salohiyati uchun zarur. Darsliklarda ular nomlarining ko'rsatilmasligi darslik to'g'risida mutaxassislarining sinov davrida va

keyinchalik ham, erkin fikr bildirish imkoniyatini amalga oshirgan bo'lar edi, chunki darslikda ulkan daraja va unvonlarga ega bo'lgan shaxslar nomlarining turishi har qanday mutaxassisni fikr bildirishdan o'zini tiyishga majbur qiladi. Buni dastlab muqobilik asosida yaratilgan darsliklarga joriy etish mumkin.

6. Metod va texnologiyalarni tanlash masalasi. Ta'lim jarayonining sifati ko'p jihatdan o'qitish metod va texnologiyalarini to'g'ri tanlashga bog'liqligi metodistlarimiz tomonidan e'tirof etib kelinmoqda, lekin o'quv jarayonini qaysi metod/texnologiyalarda tashkil etish masalasida ehtiyotkorlik zarur. Vatanimiz va xorijda ishlab chiqilgan har qanday metod/texnologiyalardan sidirg'asiga foydalanish kutilgan natijani beravermaydi, qolaversa, o'quvchilar faqat tajriba maydoni bo'lib qolmasligi ham kerak. Agar har bir darsning betakrorligi va uning boshqaruvchisi saviyasining o'ziga xosligini hisobga olsak, o'qituvchiga metod/texnologiyalarni tanlash bo'yicha erkinlik berish va uning samaradorligini nazorat qilish lozim bo'ladi xolos. Bu o'rinda biz xorijda ishlab chiqilgan texnologiyalarni to'g'ridan to'g'ri o'quv jarayonida qo'llamagani uchun o'qituvchiga dashnom berilmasligi to'g'risida fikr yuritmoqdamiz. Pedagogik, psixologik va metodik aqidamiz bo'yicha har bir dars ijod namunasi ekan, har qanday metod/texnologiyalarni aynan ko'chirishga yo'l qo'yish mumkin emas. Ta'kidlash lozimki, metod/texnologiyani tanlashda keng imkoniyatlardan foydalanish zarur, lekin fan, mavzu xarakteri, pedagogning u yoki bu metod/texnologiyalarga simpatiyasi, mavjud metodik baza va boshqa omillarni hisobga olish zaruriyatini ham unutmash kerak. *Boshqacha aytganda, har bir pedagogning o'z sevgan, uning tomonidan takomillashtirilgan va undan samara oladigan metod/texnologiyalari bo'lishi hozirgi kun talablari bo'lishi lozim.* Shunday usulda ishlayotgan pedagoglarimiz soni yetarlicha. Tan olish kerak, xorijdan kirib kelayotgan turli metod/texnologiyalar keti uzilmayapti. Biz ta'lim sifatini an'anaviy metod/texnologiyalar, ilg'or pedagoglarimizning tajribalarini yig'ishtirib qo'yib, faqat xorijgagina qarab mo'ljal oladigan bo'lsak, shakllangan o'zbek tili ta'limi tizimimizni inkor etgan bo'lamiz. *To'g'ri, ilg'or xorij tajribalarini milliy lashtirish zarur, lekin bu an'anaviy ta'limni chetlab o'tish degani emas, balki o'zlashtirilayotgan metod/texnologiyalar an'anaviy ta'limga muqobil sifatida xizmat qilishi kerak.*<sup>2</sup>

Yana ta'kidlash o'rinni, ta'lim metodikalarini o'zgartirish to'g'risida turli ko'rsatmalarni berish bilan ta'lim sifatini ta'minlashda hech qachon ekspressiya yuz bermaydi, balki ta'lim metodikalari natijasi muayyan muddatlardan keyin namoyon bo'ladi, binobarin, ta'limda xorij metodikasini o'zbek tili ta'limiga tatbiq etilishi

uchun u adaptatsion davrni o'tashi ham zarur. *Istar edikki, har qanday yangi metod/texnologiyalarning (Vatanimiz yoxud xorijiy) ilg'orligi aniqlansa, uni ijodiy qayta ishlash yo'li bilan o'zlashtirish lozim, aks holda ta'lim metodikalarimizda taraqqiyot bo'lmaydi.*

7. O'quvchi nutqini tarbiyalash. Sir emaski, rus maktabida o'qiyotgan bolalarning og'zaki nutqi o'zbek sinflarida o'qiyotgan bolalarga nisbatan silliqlik, o'z fikrini aytishda ham nisbatan erkin. Ayniqsa, o'zbek bolalarimiz kundalik hayotida tez-tez uchrab turadigan (do'stlari, oila a'zolarining tug'ilgan kuni, bayramlar munosabati bilan aytiladigan) rasmiy uslubdagi nutqi ham shakllanmagan. Shu munosabat bilan ushbu masalada, ya'ni o'quvchilar nutqini rivojlantirish masalasida bir qator mamlakatlar tajribasini o'rganish juda ham zarur. Qolaversa, maktablarimizda adabiy nutq bilan bir qatorda so'zlashuv nutqini mashqlarda aks ettirish hamda uning metodikasini yaratish zarurati mavjud. Buni hatto birinchi sinfdan boshlab o'rgatishga kirishish ham kerak. Aslida ona tili fanining vazifasi faqat yozma nutqigina emas, balki o'quvchilarning maktab davri va butun hayotida zarur bo'ladigan og'zaki nutqini shakllantirish deb qaralishi kerak. Bu maktab ona tili darslarida og'zaki nutqqa e'tibor qaratilmayapti degani ham emas. Bunda biz og'zaki nutqni yozma nutq namunasida emas, balki so'zlashuv nutqi shaklida rivojlantirishni nazarda tutmoqdamiz.

8. Darslikda nazariy va amaliy materiallar, ya'ni mashqlarni joylashtirishda autentik materiallardan ham foydalanish kerak. Bunda nazariy materiallarni mustahkamlashda nazariy materialning o'zidan mashq sifatida foydalanish ko'zda tutilmoqda. Bunday amaliyot aslida amalda bor, lekin unda faqat bog'lanishli matnlar olinmoqda. Bunga qo'shimcha qilib biz muayyan sinfdan o'rganilayotgan nazariy masalalar mavzulariga doir tushuncha ishtirok etgan gaplarni mashqlarda keltirib borishni tavsiya qilgan bo'lar edik. Bu ish amalga oshiriladigan bo'lsa, nazariy materiallarni o'zlashtirishda ikki tadbir bir vaqtda bajarilgan bo'ladi, ya'ni u ham mashqda nazariy qoidaga misol vazifasini o'taydi, ham nazariy materialni eslatib turadi.

O'zbek tilining umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishini amaliylashtirish, uzviyligini ta'minlash hamda bu boradagi ilmiy-metodik muammolarni hal qilish, o'ylaymizki, katta munozara va yechimlarni kutib turibdi. Uning birdan bir hal qilinish yo'li ta'lim mazmunini hayotga yaqinlashtirish, yangicha fikrlash, ilg'or tajribalarni milliy lashtirish va ona tili ta'limining ilmiy tadqiqotlarini yangi pog'onaga ko'tarishdir.

<sup>1</sup> N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, Z. Jo'raboyeva. Ona tili. – Toshkent, 2011. 19–20-betlar.

<sup>2</sup> B. Xodjayev. Oliy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish: muammo va yechimlar // Pedagogik ta'lim, 2013. 2-son. 29–30-betlar.